

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

SOBIROV QO‘ZIBOY ERKINOVICH

YANGI YARATILGAN MAHALLIY DURAGAY PILLALARNI QAYTA
ISHLASHNING CHIQINDISIZ TEXNOLOGIYASI

05.06.02 - To‘qimachilik materiallari texnologiyasi
va xom ashyoga dastlabki ishlov berish
(texnika fanlari)

TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Toshkent - 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской диссертации (DSc)
Contents of abstract of doctoral dissertation (DSc)

Sobirov Qo’ziboy Erkinovich

Yangi yaratilgan mahalliy duragay pillalarni qayta ishlashning chiqindisiz
texnologiyasi 3

Собиров Кузибой Эркинович

Безотходная технология переработки новых созданных местных гибридных
коконов23

Sobirov Kuziboy Erkinovich

Newly developed indigenous hybrid cocoon waste-free processing
technology45

E’lon qilingan ishlar ro’yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....49

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

SOBIROV QO‘ZIBOY ERKINOVICH

YANGI YARATILGAN MAHALLIY DURAGAY PILLALARNI QAYTA
ISHLASHNING CHIQINDISIZ TEXNOLOGIYASI

05.06.02 - To‘qimachilik materiallari texnologiyasi
va xom ashyoga dastlabki ishlov berish
(texnika fanlari)

TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Toshkent - 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.DSc/T637 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.titli.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Axmedov Jaxongir Adxamovich**
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Xanxodjayeva Nilufar Rahimovna**
texnika fanlari doktori, professor

Valiyev Gulam Nabidjanovich
texnika fanlari doktori, professor

Erkinov Zokirjon Erkinboy o‘g‘li
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **O‘zbekiston tabiiy tolalar ilmiy tadqiqot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.T.08.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil “1” may soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil:100100, Toshkent, Shoxjahon ko‘chasi, 5. Tel.: (+99871) 253-06-06; faks: (+99871) 253-36-17; titl info@edu.uz, Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti ma’muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya bilan Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti Axborot – resurs markazida tanishish mumkin. (233-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil:100100, Yakkasaroy tumani, Shoxjahon ko‘chasi, 5. Tel.: (+9987) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “17” aprel kuni tarqatildi.
(2025 yil “17” apreldagi 233-raqamli reyestr bayonnomasi).



X.X.Kamilova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

A.Z.Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

Sh.Sh.Xakimov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda pilla xom ashyosi yetishtirish va uni qayta ishlash uchun energiya-resurstejamkor texnologiya va texnika vositalarini qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida ishlab chiqarilayotgan xom ipakning asosiy qismi XXR va Hindiston davlatlari ulushiga to'g'ri kelishini hisobga olsak¹, tut ipak qurti pillalarini qobiq xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan holda chuvishga tayyorlash va chuvish bo'yicha texnologik rejimlarni to'g'ri o'rnatib, ulardan sifatli xom ipak ishlab chiqarishni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan pillalarni chuvishga tayyorlash va chuvish jarayonlarini takomillashtirgan holda zamon talablariga mos sifatli xom ipak ishlab chiqarishda energiya-resurstejamkor texnika vositalari va qurilmalaridan foydalanish, pillalarni qayta ishlab ulardan xom ipak ishlab chiqarishda hosil bo'ladigan tolali chiqindilarini chuqur qayta ishlab ulardan sof ipak va aralash tolali mahsulotlar ishlab chiqarishdagi texnika va texnologiyalarni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda pilla yetishtirish bilan shug'ullanib kelayotgan mamlakatlarda ipak qurtining yuqori texnologik xususiyatlarga ega bo'lgan yangi zot va duragaylarini yaratish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiyalash, zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy qilish orqali raqobatbardosh ipak va aralash tolali mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha keng ko'lamda yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu yo'nalishda Yangi yaratilgan mahalliy duragay pillalarni qayta ishlashning chiqindisiz texnologiyalarini yaratish ustivor xisoblanmoqda. Bu borada, tut ipak qurti pillalarini chuvishga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish orqali xarajatlarni kamaytirish, ishlab chiqarilayotgan xom ipak sifatini hamda miqdorini oshirishga, texnologik jarayonlarga ta'sir omillarni aniqlash va ratsional parametrlarni hamda ilmiy asoslangan texnologiyalarni ishlab chiqishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda tut ipak qurti pillalarini qayta ishlab xom ipak ishlab chiqarish jarayonlarida hosil bo'ladigan tolali chiqindilarni qayta ishlashda resurstejamkor texnika va texnologiyalarni yaratish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "...ipak mahsulotidan shoyi gazlamalari tayyor mahsulotlari, shuningdek import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishdagi mavjud bo'shliqlarni to'ldirish orqali 2026 yilga borib sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini oshirish..."² kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, tut ipak qurtining yangi yaratilgan mahalliy duragay pillalarini qayta ishlash rejimlarini ishlab chiqish va ulardan sifatli xom ipak olish, hosil bo'ladigan chiqindilarni aralashtirib yigirilgan ip olish jarayonlarini tadqiq qilgani holda pillalarni qayta ishlashning chiqindisiz

¹ <https://inserco.org/en/statistics>.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.

texnologiyalarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni va 2017 yil 29 martdagi PQ-2856-son "O'zbekipaksanoat" uyushmasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi, 2019 yil 31 iyuldagi PQ-4411-son "Ipakchilik tarmog'ida chuqur qayta ishlashni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi, 2020 yil 17 yanvardagi PQ-4567-son "Pillachilik tarmog'ida ipak qurti ozuqa bazasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarorlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlantirishning II. "Energetika, energiya va resurstejamkorlik" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissetatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.

Tut ipak qurti pillalaridan yuqori sifatli xom ipak olish, tolali chiqindilarini boshqa tolalar bilan aralashtirib bikomponent iplarini ishlab chiqarish ilmiy asoslarini, to'qimachilik va yengil sanoat texnika-texnologiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar, tabiiy va kimyoviy tolalarni qayta ishlashda yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish, takomillashtirishga qaratilgan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Manchester University (Angliya), Ghent University (Belgiya), International Association of Silk Road University (Yaponiya), Kyoto University (Yaponiya), Dortmund Technical University (Germaniya), Sichuan university (Xitoy), University of Piraeus (Gretsiya), South Indian Textile Research Association (Hindiston), Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, O'zbekiston tabiiy tolalar ilmiy-tadqiqot instituti (O'zbekiston) tomonidan olib borilmoqda.

Xom ipak va ipak mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish va tayyor iplarning zamon talablariga javob beradigan turlarini yaratish borasida jahonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida qator, jumladan quyidagi ilmiy natijalar olingan: ipak iplari ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarini avtomatlashtirilgan tizimlari ishlab chiqilgan (Tajima, Yaponiya; Eton Ups, Shvetsiya; Schonenberger, Frantsiya; Datatron, Germaniya); polikomponent iplarni olishni yangi usullari yaratilgan (Turbo va Heberlein, Shveysariya); DTV mashinasida sintetik shtapel tolalarini olishni yangi texnologiyalari ishlab chiqilgan (Oerlikon Barmag, Germaniya); yuqori sifatli xom ipak, sifati yaxshilangan bikomponent iplarini va tabiiy ipakdan tikuv, trikotaj iplarini ishlab chiqarish usullari, ipak jarrohlik iplari, tibbiyot dokasi va boshqa matolar yaratilgan (Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, O'zbekiston tabiiy tolalar ilmiy-tadqiqot instituti, O'zbekiston).

Dunyoda sifatli xom ipak va ipak mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlarining texnologiyalarini yaratish hamda takomillashtirish bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: yangi yuqori ipakchanlikka ega bo'lgan zot va duragay pillalarini yaratish asosida yuqori sifatli xom ipak olish texnologiyasini takomillashtirish; tabiiy ipak xususiyatlariga o'xshash tusli iplarni yaratish; navsiz pillalardan ipak massasini ajratib olish, ipak tolalarini boshqa tolalar bilan aralashtirib yangi ip turlarini yaratish; mavjud texnologiyalarni takomillashtirish asosida bikomponent iplarni ishlab chiqarish, tut ipak qurti pillalarni qayta ishlashning chiqindisiz texnologiyasini yaratish.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Pillalarni chuvish texnologiyasini takomillashtirish, yuqori talablarga javob beradigan sifatli xom ipak olish muammolari bo'yicha xorijda N.Manesh, K.D.Rajat, Y.Zhiyong, M.Arumugam, L.Min, S.Gunze, N.Hazarika, C.Minano, H.Harada J.Mo, S.Pan va boshqa olimlar shug'ullanishgan bo'lsa, ushbu muammolar bilan respublikamiz olimlaridan Kukin G.K., Usenko V.A., Rubinov E.B., Muxamedov M.M., Burnashev I.Z., Qodirov Sh.A., Alimova H.A., Gulamov A.E., Islambekova N.M., Axmedov J.A., Avazov K.R. kabi olimlar shug'ullanishgan.

Paxta va boshqa aralash tolali yigirilgan iplar olish jarayonlari va texnika va texnologiyalarni takomillashtirish bo'yicha xorijiy olimlardan Richard L., Perik K.R., P.Szech, M.Harfa, J.Rudvisaik, B.Frantisek, Sh.Ales, L.Chen, X.Cao, H.Wang, M.Gui, L.Wang hamda Rossiyalik olimlar V.A. Usenko, S.D.Nikolayeva, A.S.Dalidovich, V.P.Sklyannikova, B.A.Buzov, V.I.Bajenova, Artyomov V.G., Lunkova S.V. boshqalar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar respublikamiz olimlaridan G'afurov Q.G., Jumaniyazov Q.J., Matismailov S.L., Alimova H.A., Gulamov A.E., Aripdjanova D.U., Xabibullayev D.U. va boshqalar tomonidan bajarilgan.

Mazkur tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, natijasida tut ipak qurtining yangi yaratilgan mahalliy duragay pillalarini chuvish texnologiyalarini nazariy asoslarini ishlab chiqish va undan sifatli xom ipak ishlab chiqarish hamda hosil bo'ladigan tolali chiqindilardan aralash tolali bikomponent yigirilgan ip olish texnologik rejimlarini yaratish bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining A-3-5 "Ipakning nanotexnologiyasi asosida mahsulotlarning raqobatbardosh yangi turlarini ishlab chiqarish usullari va texnologiyalarini yaratish" (2015-2017), F-A-2018-026 "Tabiiy ipakni va uning nanobo'lakchalarini qo'llab, tibbiyotda va maishiy ehtiyojlarda foydalaniladigan mahsulotlarni yangi turlarini ishlab chiqarish usullari va texnologiyalarini yaratish" (2018-2020), Jahon bankining Development of antimicrobial nonwoven products from silk waste for medical applications (2022-2024) mavzusidagi loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yangi yaratilgan mahalliy duragay pillalarni qayta ishlashning takomillashtirilgan chiqindisiz texnologiyasini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ikkinchi mavsumda yetishtirilgan yangi yaratilgan mahalliy duragay pillalar qobiq'ining texnologik xususiyatlarini tadqiq etish;

ikkinchi mavsumda yetishtirilgan yangi yaratilgan mahalliy duragay pillalardan yuqori sifatli "3A" va "4A" sinfiga mos xom ipak olish uchun texnologik rejimlarni ishlab chiqish va asoslash;

navsiz pillalarni qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirish;

aralash tolali bikomponent yigirilgan iplarni ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish;

yigirilgan bikomponent ip sifatiga ta'sir etuvchi omillarni nazariy va amaliy asoslash.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida tut ipak qurtining ikkinchi mavsumda yetishtirilgan yangi yaratilgan mahalliy "Navbahor-1" va "Navbahor-2" duragaylar pillalari hamda paxtaning "Xorazm -150" seleksion navi tolalari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti tut ipak qurtining ikkinchi mavsumda yetishtirilgan yangi yaratilgan mahalliy duragay pillalarini chuvishtirishga tayyorlash, ishlab chiqarilgan xom ipak sifat ko'rsatkichlarini aniqlash, paxta-ipak biomponent yigirilgan ipi olish va uni sifat ko'rsatkichlarini aniqlashdagi uslub va vositalari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida iplar mexanikasi, tajriba analizi, matematik statistikaning natijalarni qayta ishlash, amaliy matematikaning kichik kvadratlar, xom ipakni ishlab chiqarish va sifat ko'rsatkichlarini aniqlash, tabiiy ipak chiqindilarini qayta ishlash, ularni yigirishga tayyorlash, aralash tolali bikomponent yigirilgan ip olish va uni sifat ko'rsatkichlarini aniqlash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yangi yaratilgan mahalliy duragaylardan ikkinchi takroriy mavsumda yetishtirilgan pillalarni saralashda nuqsonli pillarni keyingi jarayonga o'tkazmaslik asosida chuvishtirish texnologik jarayonlari takomillashtirilgan;

pillalardan yuqori sifatli "3A" va "4A" sinfiga mos xom ipak olish uchun ularning qobiq xususiyatlari-suv o'tkazuvchanligi, qattiqligi, g'ovakdorligini tahlili asosida, pilla ipini qobiqdan ajralish adgeziya kuchini kamaytirish orqali texnologik rejimlar ishlab chiqilgan;

navsiz pillalar nuqsonlarini va qattiqligini bug'lash jarayoniga ta'sirini aniqlash asosida iplarning chiziqli zichligini nazorat qilmasdan bir tekis parallel joylashgan ipak kalavasini olish texnologiyasi hamda pilla ilgichlarini 10 tadan 3 taga qisqartirish orqali chuvishtirish dastgohi takomillashtirilgan;

bikomponent ip mustahkamligiga uning tarkibidagi ipak tolalar ulushi, buramlar soni va pilla cho'zilishini ta'siri isbotlangan hamda aralash tolali yigirilgan iplarni ishlab chiqarishni takomillashtirilgan texnologiyasi yaratilgan;

takomillashtirilgan ipak ishlab chiqarish va navsiz pillalarni qayta ishlash texnologiyalarida olinadigan xom ipak va bikomponent yigirilgan ipining sifatiga ta'sir qiluvchi omillarning ratsional qiymatlari qurilgan regression modellarning tahlili asosida aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Ikkinchi mavsumda yetishtirilgan yangi yaratilgan mahalliy “Navbahor-1” va “Navbahor-2” duragay pillalarining qobig‘i va ulardan chuvib olingan xom ipakning fizik-mexanik xususiyatlari aniqlangan;

Ikkinchi mavsumda yetishtirilgan tut ipak qurtining yangi yaratilgan mahalliy “Navbahor-1” va “Navbahor-2” duragay pillalarini chuvishga tayyorlash va ulardan xom ipak ishlab chiqarish jarayonida chuvish parametrlari aniqlanib sifatga ta’sir etuvchi omillar asoslangan;

Ikkinchi mavsumda yetishtirilgan tut ipak qurtining yangi yaratilgan mahalliy “Navbahor-1” va “Navbahor-2” duragay pillalaridan “3A” va “4A” sinflariga mos sifatli xom ipak olishda pillalarni pishirish va chuvishni texnologik rejimlari nazariy va amaliy isbotlanib, ishlab chiqarish korxonalariga joriy qilingan;

Navsiz pillalarni qayta ishlashning takomillashtirilgan dastgohi va texnologiyasi ishlab chiqilgan;

aralash tolali bikomponent yigirilgan iplarni ishlab chiqarishni takomillashtirilgan texnologiyasi yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tajribalar ma’lumotlarini statistik ishlov orqali asoslanganligi, olingan tajriba natijalari parallel tajriba natijalariga mos kelishi, pillalardan ipak massasini ajratib olishni nazariy va amaliy modellarining o‘zaro yaqinliklari, bikomponent yigirilgan ip sifatiga ta’sir qiluvchi omillarning statistik tahlil qilinganligi hamda zamonaviy metodlarni qo‘llanilishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ikkinchi mavsumda yetishtirilgan yangi yaratilgan mahalliy “Navbahor-1” va “Navbahor-2” duragay pillalarini chuvishga tayyorlashning optimal rejimlarini ishlab chiqilganligi, chuvilayotgan pillalar chiziqli zichliklarini nazorat qilish orqali yuqori sifatli “3A” va “4A” sinflariga mos xom ipak ishlab chiqarish uchun chuvish rejimlarini nazariy asoslangan texnologiyasini takomillashtirilganligi, navsiz pillalarni qayta ishlashning takomillashtirilgan texnologiyasi ishlab chiqilganligi, aralash tolali bikomponent yigirilgan iplarni ishlab chiqarishni takomillashtirilgan texnologiyasi asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ikkinchi mavsumda yetishtirilgan yangi yaratilgan mahalliy “Navbahor-1” va “Navbahor-2” duragay pillalarni chuvishga tayyorlash va chuvish texnologiyalarini takomillashtirish, ularni joriy etish natijasida yuqori sifatli “3A” va “4A” sinflariga mos xom ipak olish imkoniyati yaratilganligi, navsiz pillalarni qayta ishlashning takomillashtirilgan texnologiyasi ishlab chiqilganligi, aralash tolali bikomponent yigirilgan iplarni ishlab chiqarishni takomillashtirilgan texnologiyasi yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yangi yaratilgan mahalliy duragay pillalarni qayta ishlashning chiqindisiz texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Ichki kiyimlarga mo‘ljallangan trikotaj ishlab chiqarish uchun xomashyo tayyorlash usuliga O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Intellektual mulk Agentligining ixtiroga patenti olingan (IAP 7697, 2024 y.), natijada navsiz pillalarni chuvishni (NPCHD) dastgohi takomillashtirilgan;

tavsiya etilgan takomillashtirilgan texnologiya “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tasarrufidagi korxonalarida, jumladan, Xorazm viloyatining Xiva shahridagi “Khiva Silk Fabric” MCHJ, Yangiariq tumanidagi “XORAZM PILLA XOLDING” MCHJ da joriy qilingan (“O‘zbekipaksanoat” uyushmasining 2024 yil 15 avgustdagi 4-3/977-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, korxonalarda davlat standarti talablari bo‘yicha ishlab chiqarilayotgan “2A” sinfiga mos xom ipak sifati bo‘yicha ko‘rsatkichlari yaxshilanib, davlat standarti talablari bo‘yicha “3A” sinfiga mos yuqori sifatli xom ipak olish imkoniyati yaratilgan. Pillalarni chuvish jarayonidagi pillalarning solishtirma sarfi 2,8 dan 2,7 kg gacha kamaytirilib bir kilogramm xom ipak olish uchun sarflanadigan pilla xomashyosi sarfi 3,57% ga kamaytirilishiga erishilgan;

bikomponent yangi turdagi gazlamalar uchun xom ashyo tayyorlash texnologiyasi «O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasi tarkibidagi korxonalarda, xususan, “TEXTILE FINANCE KHOREM” MCHJ, “KOBOTEX” MCHJ, “GLASUN TASHKENT” MCHJ shaklidagi xorijiy korxonalarida (“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2024 yil 29 avgustdagi 03/25-2291 sonli ma’lumotnomasi) joriy etilgan. Natijada, aralash tolalardan yigirilgan ip olish yangi texnologiya va usulda ishlab chiqarilgan yigirilgan iplar assortimentini qo‘llashda 100% paxta ipiga nisbatan sifat ko‘rsatkichi 17,3% ga oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 14 ta xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-texnik va ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 28 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta maqola nashr etilgan, shundan 2 ta maqola Scopus bazasida indeksatsiya qilingan jurnalda chop etilgan. Bitta ixtiroga patent olingan № IAP 7697. Bitta foydali modelga № FAP 20240315 sonli talabnoma yuborilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 5 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 215 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligi, zaruriyati asoslangan, ilmiy muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot materiallari va uslubiyotlari yoritilgan, shu bilan birga tadqiqot ob‘ekti, uning predmeti shakllantirilgan, respublikamiz fan va texnologiyalarini rivojlanishining tegishli ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatib o‘tilgan, ishning maqsad va vazifalari, ilmiy va amaliy yangiligi, erishilgan natijalarning ilm-fan va amaliyot uchun ahamiyati ta’kidlab o‘tilgan. Natijalarni ishlab chiqarishga joriy qilinishi, olingan ilmiy ma’lumotlarni nashr etilishi va dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ipakchilik sohasidagi mavjud muammolar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida adabiyot manbaalarining tahlili yoritilgan bo‘lib, unda respublikamizda pilla yetishtirish va xom ipak ishlab chiqarishning istiqbollari,

to'qimachilik sanoatida ipakchilik tarmog'ining tutgan o'rni, tut ipak qurtining yangi yaratilgan mahalliy duragay pillalari va xom ipak sifatga ta'sir etuvchi omillar, yuqori sifatli xom ipak ishlab chiqarishda pilla xom ashyolaridan samarali foydalanish, tabiiy ipak chiqindilarini qayta ishlash jarayonlarini tahlili hamda aralash tolali bikomponent va polikomponent to'qimachilik yigirilgan iplari olish bo'yicha qilingan ishlar tahlili ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni tahlili kabi masalalarga e'tibor qaratilgan.


Olib borilgan adabiyotlar tahlili natijalari asosida ikkinchi mavsumda yetishtirilgan pillalarining texnologik imkoniyatlaridan foydalanib, yuqori sifatli "4A" va "3A" sinfiga mos xom ipak olish usullarini ishlab chiqish, navsiz pillalardan ipak massasini ajratish va bikomponent yigirilgan ip olish texnologiyasini takomillashtirish lozimligi aniqlandi va uni ilmiy asoslash masalalari dissertatsiya ishining vazifasi etib belgilangan.

Dissertatsiyaning **"Tut ipak qurtining yangi yaratilgan mahalliy duragay takroriy ikkinchi mavsum pillalaridan yuqori sifatli xom ipak va yigirilgan bikomponent ip olish uchun xom ashyoni asoslash"** deb nomlangan ikkinchi bobida ikkinchi mavsumda yetishtirilgan yangi yaratilgan mahalliy duragay pillalarining qobig'ining texnologik xususiyatlari, yakka chuvish natijalari, navsiz pillalarni qobiq xususiyatlari va ularni qayta ishlash usullari, paxta tolalari xususiyatlari tadqiqi, yigirilgan paxta-ipak bikomponent ipi ishlab chiqarish texnologiyasini yaratishda tolalar mosligini asoslash tadqiq etilgan.

Aholining turmush darajasi yaxshilangani sari iste'molchilik va gigiyenik xususiyatlari yuqori bo'lgan ipak mahsulotlariga talab ortib bormoqda.

Ikkinchi mavsumda yetishtirilgan mahalliy duragay pillalarni qobiq xususiyatlarini tahlili asosida "3A" va "4A" sinfiga mos xom ipak ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish masalasi ipakchilik sanoati mutaxassislari va olimlari oldidagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan muammolarni hal qilish maqsadida mahalliy "Navbahor-1" va "Navbahor-2" duragaylari pillalarini texnologik xususiyatlari tahlili asosida pillalarni pishirish, chuvishga ta'sir etuvchi omillar tadqiq etildi. Dastlab pillalar qobig'ining quvvati va zichligi ko'rsatkichlari aniqlandi. Olingan natijalar 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Pillalar qobig'ining o'rtacha quvvati, (mg/mm²) va o'rtacha zichligi (mg/mm³) ko'rsatkichlari

1-rasm tahliliga muvofiq ikkinchi mavsumda yetishtirilgan pillalar qobiqlarining oʻrtacha quvvatlari koʻrsatkichlari “Navbahor-1” da $0,337 \text{ mg/mm}^2$ ni, “Navbahor-2” da $0,339 \text{ mg/mm}^2$ ni va Xitoy duragayida $0,336 \text{ mg/mm}^2$ ni tashkil qildi. 2.1-diagramma tahliliga muvofiq mahalliy “Navbahor-1” va “Navbahor-2” duragaylari pillalari va mahalliy sharoitda yetishtirilgan Xitoy duragayi pillalari qobiqlarini quvvati koʻrsatkichlari oʻrganilganda, mahalliy “Navbahor-1” va “Navbahor-2” duragayi pillalari qobiqlarining quvvati mahalliy sharoitda yetishtirilgan Xitoy duragayi pillalari qobiqlari quvvatidan 0,88% ga yuqori ekanligi aniqlandi.

Diagrammadan koʻrishimiz mumkinki, tajribalar davomida aniqlangan pillalar qobiqlarini zichliklari boʻyicha koʻrsatkichlarining oʻrtacha qiymatlari ikkinchi mavsumda yetishtirilgan mahalliy “Navbahor-1” duragayi pillalarida $0,427 \text{ mg/mm}^3$ ni, “Navbahor-2” duragayi pillalarida $0,427 \text{ mg/mm}^3$ ni hamda ikkinchi mavsumda mahalliy sharoitda yetishtirilgan Xitoy duragayi pillalarida $0,416 \text{ mg/mm}^3$ ni tashkil qilgan.

Ikkinchi mavsumda yetishtirilgan “Navbahor-1” va “Navbahor-2” va Xitoy duragaylari pillalarini ipakchanligi koʻrsatkichlari aniqlandi va natijalar 1-jadvalda keltirilgan.


1-jadval

Ikkinchi mavsumda yetishtirilgan “Navbahor-1” va “Navbahor-2” va Xitoy duragayi pillalarini ipakchanligi koʻrsatkichlari

№	Duragaylar	Ipakchanligi (%)
1.	“Navbahor-1”	51,05
2.	“Navbahor-2”	51,07
3.	Xitoy duragayi	51,02

1- jadaldan koʻrishimiz mumkinki, ikkinchi mavsumda yetishtirilgan “Navbahor-1” duragayi pillalari ipakchanligi koʻrsatkichi 51,05% ni, “Navbahor-2” duragayi pillalari ipakchanligi koʻrsatkichi 51,07% ni hamda Xitoy duragayi pillalarining ipakchanligi koʻrsatkichi 51,02% ni tashkil qilmoqda.

Tut ipak qurti pillalari qobiqlari qattiqligi va qalinligi xususiyatlari ularni chuvishga tayyorlash jarayonlarida ahamiyati katta hisoblanadi. Ortiqcha bugʻlangan pillalardan xom ipak olishda iplar paketlari bilan chiqib mayda va yirik nuqsonlar paydo boʻlishi ehtimolini oshiradi. Shu sababli duragaylar pillalaridan namunalar olinib ushbu xususiyatlarini aniqlash boʻyicha tajribalar oʻtkazildi.



2-rasm. Pillalar qobigʻining qattiqligi(mm) va qalinligi(mm) koʻrsatkichlari tahlili

O'tkazilgan tajribalar davomida aniqlangan ikkinchi mavsumda yetishtirilgan mahalliy "Navbahor-1" va "Navbahor-2" va ikkinchi mavsumda mahalliy sharoitda yetishtirilgan Xitoy duragayi pillalarining qobiqlarining qattiqliklari va qalinliklarining o'rtacha ko'rsatkichlari 2-rasmda keltirilgan.

Tajribalar natijasiga asosan ikkinchi mavsumda yetishtirilgan mahalliy "Navbahor-1" va "Navbahor-2" duragayi pillalari qobiqlarining qattiqliklari ko'rsatkichi ikkinchi mavsumda mahalliy sharoitda yetishtirilgan Xitoy duragayi pillalari qattiqliklariga nisbatan 2,53 % ga yuqori ekanligi aniqlandi.

Tajribalar davomida Xorazm viloyatida yetishtirilgan g'o'zaning "Xorazm-150" seleksion navi tolalaridan namunalar olinib HVI tizimida sifat ko'rsatkichlari aniqlandi. (2-jadval).

2-jadval

**"Xorazm-150" g'o'za navi tolalarining HVI tizimida aniqlangan
sifat ko'rsatkichlari**

№	Ko'rsatkichlar nomi	Ko'rsatkichlar
	Seleksiya navi	Xorazm-150
1.	Tolalarning yigiriluvchanlik qobiliyati-SCI (120 dan kam bo'lmasligi lozim)	129
2.	Mst-MR-tola pishganligi (zrelost)	6,4
3.	Mikroneyer, Micronarc (Mic)	4,75
4.	Mat-tolani pishib yetilganligi	0,87
5.	Yuqori o'rta uzunlik Upper Half Mean Length (UHM)	28,54 mm
6.	UI-Uniformity Index (Unf)-Uzunlik bo'yicha bir xillik indeksi	82,7%
7.	SFI (Kalta tolalar indeksi)	6,8%
8.	Solishtirma uzilish kuchi - Strength (Str)	29,6 g/tex
9.	Uzilishdagi uzayishi – Elongation (Elg)	7,3%
10.	Qaytarish koeffitsenti -Reflestance (Rd)	80,4%
11.	Sarg'ishlik darajasi –Yellowness (+b)	8,0
12.	C-G-color grest yoki rang bo'yicha nav	21-2
13.	Tr Cnt-iflos aralashma miqdori,soni	34 ta
14.	Iflos aralashmalar maydoni-Trash Area (Area)	0,30%
15.	TriD-Tresh kod–Trash Code (T) notolaviy aralashma	3,0
16.	Amt (Tekshirilayotgan namunadagi tolalar soni)	651

2-jadvaldan ko'rishimiz muminki, g'o'zaning "Xorazm-150" seleksion navi tolalarining HVI tizimida sifat ko'rsatkichlari aniqlanganda ularning SCI - yigiriluvchanlik qobiliyati 129 ga, MR-tola pishganligi 6,4 ga, Micronarc (Mic) mikroneyer ko'rsatkichi 4,75 ga, Mat-tolani pishib yetilganligi ko'rsatkichi 0,87 ga, Upper Half Mean Length (UHM) yuqori o'rta uzunligi 28,54 mm ga, UI – Uniformity Index (Unf)-uzunlik bo'yicha bir xillik indeksi 82,7% ga, SFI -kalta tolalar indeksi 6,8% ga, Strength (Str) solishtirma uzilish kuchi 29,6 g/tex ga, Elongation (Yelg)-uzilishdagi uzayishi ko'rsatkichi 7,3% ga teng bo'lgan.

Taklif qilinayotgan texnologiyaga muvofiq bikomponent paxta-ipak yigirilgan iplari olish bo'yisha tajribalar o'tkazildi. Aralashmadagi komponentlar ulushlarini har

xil miqdorlarda olinib ishlab chiqarilgan bikomponent iplarning fizik mexanik ko'rsatkichlari aniqlandi. Paxta va tabiiy ipak tolalarning har xil ulushdagi aralashmalaridan ishlab chiqarilgan bikomponent yigirilgan iplarining fizik mexanik ko'rsatkichlari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval


Paxta va tabiiy ipak tolalarning har xil ulushdagi aralashmalaridan ishlab chiqarilgan bikomponent yigirilgan iplarining fizik mexanik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlarning nomi	OzDSt 2322:2011	Bikomponent iplarini tajriba variantlari, komponentdagi tolalar ulushi % da		
	paxta 100 %	Paxta 90 Ipak 10	Paxta 80 Ipak 20	Paxta 70 Ipak 30
Chiziqli zichligi, tex	18,0	18,2	18,2	18,1
Chiziqli zichlik bo'yicha variatsiya ko'effitsiyenti, %	3,8	3,0	2,9	2,6
Uzilish kuchi, sN	210,6	245	296	313
Uzilish kuchi bo'yicha variatsiya ko'effitsiyenti, %	13,8	8,72	8,2	7,92
Nisbiy uzilish kuchi, sN/tex	11,7	13,46	16,26	17,2
Sifat ko'rsatkichi	0,86	1,54	2,05	2,09
Uzilishdagi cho'zilish, %	-	4,3	4,55	4,7
Nisbiy uzilish kuchi bo'yicha variatsiya ko'effitsiyenti, %	-	4,32	4,22	4,1
Uzilishlar soni, 1000 urch/s	-	44	40	38

3-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar tahlilidan ko'rishimiz mumkinki, tajriba variantlarida olingan yigirilgan iplarining nisbiy uzish kuchi va uzishdagi cho'zilishi nazorat variantiga nisbatan ancha yuqoriligi va yigirishdagi uzilishlar soni sezilarli darajada kamaygan. O'zDSt 2322:2011 talablari bo'yicha 100% paxta tolali yigirilgan ipiga nisbatan oliganda, chiziqli zichligi 18,2 tex bo'lgan bikomponent kalava ipi (II variant) nisbiy uzish kuchi miqdori 38,97% ga va uzishdagi cho'zilish 13,75% ga oshgan, yigirishdagi uzilishlar soni esa 20% ga kamaygan.

Dissertatsiyaning **“Ikkinchi mavsumda yetishtirilgan yangi yaratilgan mahalliy duragay pillalardan yuqori sifatli “3A” va “4A” sinflariga mos xom ipak olish texnologik rejimlarini asoslash”** deb nomlangan uchinchi bobi ikkinchi mavsumda yetishtirilgan mahalliy “Navbahor-1” va “Navbahor-2” duragaylari pillalaridan davlat standarti talablari bo'yicha “3A” va “4A” sinfiga mos xom ipak olish bo'yicha chuvishga tayyorlash va chuvish bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar asosida rejimlar ishlab chiqishga hamda aniqlangan ko'rsatkichlarni nazariy jihatdan asoslashga bag'ishlangan.

Ikkinchi mavsumda yetishtirilgan mahalliy “Navbahor-1” va “Navbahor-2” duragaylari pillalarini standart talablari bo'yicha “3A” va “4A” sinfiga mansub xom ipak olishdagi tajriba variantida saralashdan chiqqan navlar bo'yicha ulushi 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm. Mahalliy “Navbahor-1” va “Navbahor-2” duragayi pillalarini “3A” va “4A” sinfiga mos xom ipak olish bo'yicha saralashda navlar bo'yicha chiqishi, %

3-rasmda keltirilgan grafiklardan ko'rishimiz mumkinki, ikkinchi mavsumda yetishtirilgan mahalliy “Navbahor-1” va “Navbahor-2” duragaylari pillalarini davlat standarti talablari bo'yicha “3A” va “4A” sinfiga mos xom ipak olishdagi tajriba variantida saralashdan chiqqan navlar bo'yicha ulushi I-nav pillalarining chiqishi 60/50,0% ni, II-nav pillari chiqishi 20/30,0% ni va navsiz pillalar chiqishi 20/20,0% ni tashkil qilmoqda.

FY-2000EX pilla chuvish avtomatining silkitish dastgohida ikkinchi mavsumda yetishtirilgan mahalliy “Navbahor-1” va “Navbahor-2” duragayi pillalarini uchlarini topish va silkitish jarayonlari uchun tavsiya etilgan parametrlar 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

FY-2000EX avtomati silkitish dastgohida pillalar uchlarini topish uchun tavsiya etilgan parametrlar

№	Ko'rsatkichlar	Nazorat	Tajriba
1	Pillalarni uchlarini topish chyoatka ostidagi suv harorati °C	80-85	75-78
2	Pillalarni silkitib torsimon losni ajratish tozidagi suv harorati °C	75-77	65-67

4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, nazorat variantida FY-2000EX pilla chuvish avtomatining silkitish dastgohida ikkinchi mavsumda yetishtirilgan “Navbahor-1” va “Navbahor-2”duragayi pillalari uchlarini topishda chyoatka ostidagi suvning harorati 80-85°C ni va silkitish zonasidagi esa 75-78°C ni, tajriba variantida esa pillalarini uchlarini topishda chyoatka ostidagi suvning harorati 80-85°C ni va silkitish zonasidagi suvning harorati 75-78°C ni tashkil qilmoqda.

FY 2000EX pilla chuvish avtomatining texnologik ko'rsatkichlari 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

FY 2000EX pilla chuvish avtomatining texnologik ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkich nomi	Nazorat	Tajriba
1	Chuvish tozi harorati (°C)	30-35	30-35
2	Quritish shkafining harorati (°C)	40-45	40-45
3	Chirmov uzunligi (mm)	40-70	40-70
4	Ip chirmovdan chiqish burchagi (°)	75-80	75-80
5	Chuvish tezligi (m/min)	120	130
6	Dasta tagidagi pillalar soni, dona 2,33 tex	9-10	9-10

FY-2000EX chuvish avtomatida ilgichlar soni 400 donani tashlik etib, xom ipakning chiziqli zichligini nazorat qilish tangensial ishqalanish kuchi usulida amalga oshiriladi va olinayotgan iplar 0,65 perimetrlariga o'raladi. Pillalarni chuvib xom ipak ishlab chiqarishdagi chuvish tezligi dastgoh ishlab chiqarish unumdorligiga, olinayotgan xom ipak sifatiga (chiziqli zichlik bo'yicha notekisligi, tozaligi) katta ta'sir qiladi.

Nazorat va tajriba variantlarida FY-2000 EX pilla chuvish avtomatida pillalarni ratsional chuvish tezliklari 6-jadvalda keltirilgan

6-jadval

Nazorat va tajriba variantlarida FY-2000 EX pilla chuvish avtomatida pillalarni optimal chuvish tezliklari

Duragaylar	Chuvish tezligi (m/min)	
	Nazorat	Tajriba
“Navbahor-1”	120	131,4
“Navbahor-2”	121	130,7

6-jadvaldan ko'rinib turibdiki, ikkinchi mavsumda yetishtirilgan mahalliy “Navbahor-1” va “Navbahor-2” duragaylari pillalari optimal chuvish tezligi mos ravishda 120-121 m/min ni tashkil qilgan bo'lsa, tajriba variantida ikkinchi mavsumda yetishtirilgan mahalliy “Navbahor-1” va “Navbahor-2” duragaylari pillalari optimal chuvish tezligi mos ravishda 131,4-130,7 m/min ni tashkil qilgan.

Nazorat va yangi takomillashtirilgan tajriba variantlaridagi chuvish texnologik jarayonlari ketma-ketligi 7-jadvalda keltirilgan.

7-jadval

Nazorat va yangi takomillashtirilgan tajriba variantlaridagi chuvish texnologik jarayonlari ketma-ketligi


No	Jarayonlar	Nazorat	Tajriba
1	Pillalarni loslardan tozalash CA-70	Tozalandi	tozalandi
2	Pillalarni kalibrlash	19-21	19-21
3	Pillalarni saralash MKK-1	Saralash	sifatli saralash
4	Pillalarni suv bilan to'ldirish ZD-800 (suvning harorati, °C)	25-30	40
5	Seritsinni yumshatish ZD-427 (min)	18	15
6	Pillalar uchlarini topish va silkitish (suv harorati, °C)	80-85	75-78
7	Chuvish tezligi FY -2000EX (m/min)	120	130
8	Xom ipakni ivitish (suv harorati, °C)	25-30	25-30
9	Xom ipakni qayta o'rash (m/min)	330	330

7-jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, ikkala variantda ham pillalar CA-70 dastgohida loslardan tozalangan. Nazorat variantida chuvish texnologik jarayonlaridan pillalarni saralashda navlar aralashmasiga saralanilgan, pillalar ichlariga suv to'ldirish ZD-800 dastgohida vakuum ostida suvning harorati 25-30°C da amalga oshirilgan, qobiqdagi seritsinni yumshatish ZD-427 dastgohida 18 min da, pillalarni uchlarini topish va silkitish 80-85°C da, FY-2000EX avtomatida chuvish

tezligi 120 m/min ni tashkil qilgan. Tajriba variantida chuvish texnologik jarayonlari takomillashtirilgan va pillalarni saralashda faqat I-nav pillalar saralanilgan, pillalar ichlariga suv to'ldirish ZD-800 vakuum ostida suv to'ldirish dastgohida suvning harorati 40°C da amalga oshirilgan, qobiqdagi seritsinni yumshatish ZD-427 dastgohida 15 min da, pillalarni uchlarini topish va silkitish 75-78°C da, FY-2000EX avtomatida chuvish tezligi 130 m/min ni tashkil qilgan.

Dissertatsiyaning **“Navsiz pillalardan chiziqli zichligini nazorat qilmasdan ipak kalavasi olish va xom ashyoni yigirishga tayyorlash”** deb nomlangan to'rtinchi bobi saralashda chiqqan navsiz pillalardan chiziqli zichligini nazorat qilmasdan ipak kalavasini olish, ipak massasini olishda ta'sir qiluvchi kuchlarni nazariy tahlili, chuvish dastgohini takomillashtirish, chuvish parametrlarini o'rnatish va olingan kalavalarni yog'sizlantirib yelimsizlantirish texnologiyasi, ipak kalavalarini shtapellash jarayonlariga bag'ishlangan.

Bizga ma'lumki, pilla qobig'idan ipni ajratib olish jarayoni suvli muhitda ma'lum chuqurlikda cho'kkan holatda amalga oshiriladi. Ipni qobiqdan ajratib olish jaryoniga uni pilla qobig'iga yopishganlik kuchidan tashqari markazni harakati qonuniyati hamda suvli muhitda pillaning harakati ham ta'sir qiladi. Bunda pillaning harakat qonuni oddiy jismlar uchun o'rnatilgan gidrodinamika usuli yordamida aniqlanadi. Shar shaklidagi o'zgaruvchan massali pillaning suvli muhitda cho'kkan holatdagi harakatini ko'rib chiqamiz (4-rasm).



4-rasm. Sharning suvli muhitda joylashishi sxemasi

Muhitni ideal siqilmaydigan suyuqlik deb qabul qilamiz va uni ichida R radiusli shar vertikal yo'nalishda harakat qiladi va $h = h(t)$ va $\theta(t)$ qonuniyatga muvofiq og'irlik markazi atrofida aylanadi.

Shar harakati tenglamasi [4-rasm] ko'rinishida olingan

$$\frac{d}{dt} \dot{h} \left[m + \frac{2\pi R^3}{3} \rho \left(1 + \frac{3 R^3}{8 h^3} \right) \right] + \frac{3\pi \rho R^6}{8 h^4} \dot{h}^2 = P + T \sin \theta \quad (1)$$


bu yerda, m - pilla og'irligi, ρ - suvli muhit zichligi, P - pillaga ta'sir qiluvchi tashqi kuch, R - shar radiusi

